

## DAVLAT XARIDLARI TIZIMIDA MOLIYAYIY RESURSLARDAN SAMARALI FOYDALANISH MASALALARI

*Olimjon Olimov,  
Oybek Xabialiev,  
Lutfillo Giyasov*

*TDIU SMMT-78 guruh talabalari*

Ma'lumki, davlat xaridlari byudjet muassasalari, byudjetdan mablag' oluvchilar, davlat maqsadli jamg'armalari hamda ustavida davlat ulushi bor tashkilot va korxonalarining mablag'laridan tejamkorlik asosida maqsadli foydalanishni ta'minlashga xizmat qiladi.

Byudjet mablag'laridan oqilona foydalanishga samarali davlat xaridi tizimini shakllantirmasdan turib erishib bo'lmaydi. Ma'lumki, davlat byudjeti mablag'larining katta qismi byudjet tashkilotlari va byudjetdan mablag' oluvchilarning tasdiqlangan ehtiyojlarini tovar, ish, xizmatlar bilan ta'minlashga sarflanadi.

Davlat xaridlarini samarali tashkil etishdan ko'zlangan maqsad davlat byudjeti va byudjetdan tashqari jamg'armalarining, shuningdek, ustavida davlat ulushi 50% dan yuqori bo'lgan tashkilotlarning mablag'lari hisobidan byudjet tashkilotlari, byudjet va byudjetdan tashqari jamg'armalardan mablag' oluvchilar, korporativ buyurtmachilarning ehtiyojlari uchun tovar(ish,xizmat)larni optimal narx va sifatda sotib olishga erishishdir.

Davlat buyurtmachilari (byudjet, korporativ va strategik buyurtmachilar) tomonidan sotib olinadigan har qanday tovar(ish,xizmat)ni davlat xaridlari tizimi tartib-taomillar asosida amalga oshirilishining qat'iy belgilanishi mablag'lardan foydalanishning ochiqlik va oshkoraligini ta'minlash bilan bir qatorda, tuzilayotgan shartnomalar hajmining ham oshishini ta'minlamoqda. Jumladan, 2020 yilda davlat xaridlari tizimida jami 124 089,4 mlrd. so'm miqdordagi 1 037 710 ta shartnoma tuzilgan<sup>1</sup>. Ushbu xaridlar hajmi YalMning o'rtacha 24,8 % ini tashkil etadi. Jami davlat xaridlarining 34 %i byudjet buyurtmachilarining ehtiyojlari uchun amalga oshirilgan bo'lib, ular tomonidan yil davomida 42 629,4 mlrd. so'mlik tovar(ish,xizmat)lar xarid qilingan (byudjet xarajatlarining 29,6 %i tashkil etgan).

Davlat xaridlari tizimida shaffoflik, sog'lom raqobat va mablag'lardan samarali foydalanishni ta'minlash hamda inson omilini cheklash maqsadida mamlakatimizda 10 yildan buyon savdolar elektron ko'rinishda amalga oshirilib kelinmoqda. Dastlab, 2011 yilda davlat xaridlari tizimida boshlang'ich narxni pasaytirish uchun o'tkaziladigan aukcion savdolari, 2015 yilda elektron katalog, 2018 yilda elektron do'kon, 2019 yilda milliy do'kon hamda 2020 yilda elektron tanlov va tender savdolari joriy qilindi.

<sup>1</sup> <https://www.mf.uz/uz/goszakupki-statistika/item/1382-informatsiya-o-gosudarstvennykh-zakupkakh-za-2020-god.html>

2020 yil davomida elektron savdolar (boshlang'ich narxni pasaytirish uchun o'tkaziladigan auksion va elektron do'kon)da davlat buyurtmachilari tomonidan 565893 ta shartnoma asosida jami 7 344, mlrd. so'm miqdordagi xaridlar amalga oshirilgan. Raqamlardan ko'rinib turibdiki, davlat xaridlari tizimida elektron savdolar ulushi bor-yo'g'i 6 % ni tashkil etmoqda. Vaholanki, davlatimiz rahbari 2017 yildagi Oliy Majlisga Murojaatnomasida davlat xaridlari tizimida elektron savdolar hajmini kengaytirish borasida to'xtalib, quyidagilarni ta'kidlagan edilar: "Yaqin kelajakda barcha davlat xaridlarini amalga oshirish va davlat mulkini sotish uchun Internet tarmog'ida yagona maydon tashkil etish lozim. Bu byudjet xarajatlarini qisqartirish, davlat mulkini samarali boshqarish va katta moliyaviy mablag'larni iqtisod qilish imkonini beradi"<sup>2</sup>.

Mamlakatimizda davlat xaridlarini samarali amalga oshirish masalasi har jihatdan muhim ilmiy-amaliy ahamiyatga ega. Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida davlat buyurtmachilarining xaridlar hajmi kengayib, bu bevosita byudjet mablag'lari va davlat ulushi bor korporativ tuzilmalarning moliyaviy resurslaridan oqilona foydalanish mas'uliyatini yuzaga keltirmoqda. Hozirgi kunda buyurtmachilar zarur tovar (ish,xizmat)larni ko'zlangan sifat va narxda sotib olishda qiyinchilikka uchrayotgani hech kimga sir emas, bu ayniqsa, bu ayoniqsa boshlang'ich narxni pasaytirish uchun o'tkaziladigan auksion savdolarida yaqqol sezilmoqda.

Ushbu holat davlat xaridlari tizimini samarali tashkil etishni hamda uni yanada takomillashtirishni chuqur ilmiy-nazariy tadqiq etishni va taqozo etadi.

Bizningcha, davlat xaridlari tizimini takomillashtirish uchun davlat xaridlari bo'yicha e'lonlarni portalga joylashtirish hamda shartnomalarni g'aznachilikdan ro'yxatdan o'tkazishni muvofiqlashtirish asosida moliya yilida mablag'lardan samarali foydalanish maqsadida e'lonlarni portalga joylashtirishning aniq muddatini optimallashtirish zarur.

Shuningdek, davlat xaridlarida ochiqlikni ta'minlash va raqobat muhitini oshirish maqsadida strategik ahamiyatga ega xo'jalik sub'ektlarining davlat xaridlar bo'yicha e'lon va shartnomalarini (to'g'ridan-to'g'ri tuzilgan shartnomalarni ham) portalga joylashtirilishining maqsadga muvofiq. Qolaversa, davlat xaridi jarayonlarini raqamlashtirish, sohada axborot kommunakatsiyani yanada keng joriy zarur.

### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. T.S. Malikov, O. Olimjonov. Moliya - O'quv qo'llanma. T.: "Iqtisod-moliya, 2012
2. T. Malikov, N. Haydarov. Davlat byudjeti - T.: "Iqtisod-moliya, 2007
3. A.Ваҳобов, Т.Маликов. Молия: дарелик. - Т.: Ношир, 2011
4. T.Malikov, N.Haydarov - Budget daromadlari va xarajatlari. O'quv qo'llanma, Toshkent: "IQTISOD-MOLIYA, 2007

<sup>2</sup> <https://president.uz/uz/lists/view/1371>

5. Ўроқов У., Ўғли У. Ш. Ҳадли келишув тартиб-таомили орқали давлат харидларини амалга ошириш тартиби //Science and Education. – 2023. – Т. 4. – №. 1. – С. 1103-1109.
6. Uchkun Urokov. THE IMPORTANCE OF PROCUREMENT MODELS IN THE EFFECTIVE ORGANIZATION OF PUBLIC PROCUREMENT. International Multidisciplinary Research in Academic Science (IMRAS) Volume. 6, Issue 08, December (2023)
7. Uchkun Urokov. PECULIARITIES OF IMPLEMENTATION OF PUBLIC PROCUREMENT IN UZBEKISTAN THROUGH THE AGREEMENT PROCEDURE. JOURNAL OF ECONOMICS AND BUSINESS MANAGEMENT. Volume-6, Issue-5, Published |20-12-2023|
8. Nozima Tashmatova, Uchkun O'roqov. XALQARO TASHKILOTLAR VA DAVLAT XARIDLARINI TARTIBGA SOLISH: OSHKORALIK VA SAMARADORLIKKA YO'LI. Talqin va tadqiqotlar jurnali. № 33 (2023)
9. Zarnigorxon Fazliddin qizi Nuritdinova, Uchkun Yunusovich O'roqov. DAVLAT XARIDLARINI AMALGA OSHIRISHDA JANUBIY KOREYA TAJRIBASI VA YASHIL DAVLAT XARIDLARINING TUTGAN O'RNI. SCHOLAR, 2023/1-33
10. UY Urokov, E Shodmonov, D Bobobekova. Government procurement management. - Т.-2022
11. Urokov, U. Yu. Issues of improving the public procurement system in Uzbekistan. TMI, December 13 (2014).
12. U Yu Urokov. Issues of increasing the volume of electronic purchases in the state procurement system. - TMI, May, 2021
13. U Yu Urokov. Public procurement system: yesterday and today. Market, money and credit" magazine, 2018, №8
14. Ўроқов У. Улугбек Шарипжон Ўғли. Ҳадли келишув тартиб-таомили орқали давлат харидларини амалга ошириш тартиби //Science and Education. – 2023.
15. О'роқов, У. Ю. "Давлат хариди." О'қув қўлланма. Т.: «Nihol print» ОК (2022).
16. Ўроқов, У. "Давлат харидлари тизимида электрон харидлар ҳажмини ошириш масалалари." "Замонавий молиянинг миллий ва халқаро долзарб масалалари". Халқаро илмий-амалий конференция
17. О'роқов У, Ўомг'иров Ж. Давлат харидларини ташкил этиш моделлари: афзалликлари ва камчиликлари. Science and Education. 2022 Dec 31;3(12):941-7.
18. Malikov TS, HN. Moliya umumdavlat moliyasi./O 'quv qo 'llanma. Toshkent: "Iqtisod-moliya. 2009;556.
19. А.Ваҳобов, Т.Маликов. Молия: умумназарий масалалар - Ўқув қўлланма. Тошкент, "Iqtisod-moliya, 2008
20. Ваҳобов АВ, Маликов ТС. Молия. Дарслик/Тошкент Молия институти. Тошкент: "Шарқ. 2010;804.
21. Хайдаров Н. Давлат молиясини бошқариш. Т.: «Академия. 2005.
22. Хайдаров Н Т. Маликов-Бюджет: тизими, тузилмаси, жараёни. Ўқув қўлланма. 2007.